



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 422-429 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### KORXONALARIDA XUSUSIY KAPITALINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN FOYDALANISHNI MASALALARI



**Savinova Galina Anatolevna,**  
Farg‘ona politexnika instituti,  
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o‘qituvchisi,  
e-mail: [g.savinova@ferpi.uz](mailto:g.savinova@ferpi.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola korxonalarida xususiy kapitalini shakllantirish va undan foydalanishni masalalari bag‘ishlangan bo‘lib, asosiy maqsad korxonalarining xususiy kapitalini boshqarish, shakllanish manbalarini va foydalanish samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda aniqlangan kamchiliklar va muammolarni hal qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** xususiy kapitalni boshqarish, boshqaruv qarorlari, kapital, ustav kapitali, moliyaviy barqarorlik, xususiy kapitalni shakllanishi, korxonaning daromadlari, xususiy kapitalining rentabelligi.

### ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

**Аннотация.** Данная статья посвящена вопросам формирования и использования собственного капитала на предприятиях, основной целью которой является управление частным капиталом предприятий, анализ источников его формирования и эффективности использования. Исходя из этого, были разработаны практические предложения по устранению выявленных недостатков и проблем.

**Ключевые слова:** управление частным капиталом,правленческие решения, собственный капитал, уставный капитал, финансовая устойчивость, формирование собственного капитала, прибыль предприятия, рентабельность собственного капитала.

### ISSUES OF FORMATION AND USE OF EQUITY CAPITAL IN ENTERPRISES

**Abstract.** This article is devoted to the formation and use of equity in enterprises, the main purpose of which is to manage private capital of enterprises, analyze the sources of its formation and efficiency of use. Based on this, practical proposals were developed to eliminate the identified shortcomings and problems.

**Keywords:** private capital management, management decisions, equity, authorized capital, financial stability, formation of equity, enterprise profit, return on equity.

### Kirish qismi.

Zamonaviy bozor sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati yetarlicha barqarorlik va mustaqillik bilan ta’minlanishi kerak. Shu munosabat bilan kompaniyaning strategik boshqaruvning muhim elementi xususiy kapitalini boshqarish, xususan, moliyaviy mustaqillikni saqlash va aksiyadorlarning farovonligini oshirish uchun uning yetarligini ta’minalashdir. Xususiy kapitalni tahlil qilish va uni baholashning dolzarbligi kapital tarkibini takomillashtirish va uning maksimal samaradorligiga erishish uchun asosli qarorlar qabul qilish uchun axborot bazasiga ehtiyoj borligi bilan bog‘liq. Xususiy kapitalni boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari boshqaruv qarorlarining samaradorligi bilan belgilanadi va kompaniyaning istiqboli rivojlanish strategiyasini aniqlashning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Strategik rejalashtirishni ta’minalashning muhim sharti kapital qiymatini baholash va uni raqobatchilar va umuman bozor bilan taqqoslashdir.

Kapital-bu muomalada bo‘lgan va foyda keltiradigan xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati doirasida foydalaniladigan kompaniyaning moliyaviy resurslari to‘plami [12-14]. Xususiy kapital tarkibi ikkita asosiy guruhdan iborat: ustav kapitali va to‘plangan kapital, ular o‘z navbatida qo‘srimcha, zaxira kapitali va taqsimlanmagan daromadga bo‘linadi.

Ustav kapitalining hajmi ko‘pincha kompaniya yaralish vaqtida shakllantiriladi va ustavida belgilanadi, u kapitalning eng barqaror elementi hisoblanadi, shuningdek uni keyingi o‘zgartirishga ruxsat beriladi, ammo bu o‘zgarishlar davlat idoralari tomonidan qat’iy nazorat qilinadi, chunki uning qiymati kamida qonuniy ravishda belgilangan va aktivlar qiymati sun’iy ravishda oshirilmasligi kerak, bu kompaniya ishonchlilagini ham ta’minalaydi.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Korxonalarida xususiy kapitalini shakllantirish va undan foydalanishni masalalarini o‘rganish va tadqiq dolzarb masalalardan biridir. Birinchi navbatda biz qonunchilik normativlariga murojaat qilsak O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2003-yil 24 yanvarda 1209-sodan ro‘yxatga olingan “Moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha qoidalar” va 21-sodan Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga ko‘ra xususiy kapital tarkibi quyidagi buxgalteriya balansi moddalaridan iboratdir (1-rasm).



**1-rasm: Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ko'ra xususiy kapital tarkibi**

Yuqorida keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ko'ra xususiy kapital bir nechta tarkibiy bo'laklardan iboratdir, shu munosabati bilan biz yurtimiz va xorijiy olimlarning mavzu doirasidagi qarashlarini o'rgandik va bergan ta'riflarini ko'rib chiqdik. Yurtimiz olimlari K.B. Urazov va M.E. Po'latov korxonalar xususiy kapitalining to'g'risida to'xtalganda uning muhim turi bo'lib ustav kapitaliga e'tibor qaratadi va unga quyidagicha tarif beradi "Ustav kapitali deganda korxonaning ta'sischilarini tomonidan unga kiritiladigan mablag'lar majmuasi, shuningdek, chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig'indisi tushuniladi" [1].

Bundan ko'rindaniki biz xususiy kapitalining haqida gapirganda, uning asosiy elementi "Ustav kapitali" tushunchasini ham yaxshi anglashimiz darkor, shu boisdan bu boradagi olimlarning fikrlariga murojaat etdi A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev va S.A. Jumanazarovning muallifligidagi "Buxgalteriya hisobi" darsligida shunday fikr beriladi "Ustav kapitali" tushunchasiga quyidagicha tarif beriladi "Korxonaning xususiy kapitali – bu uning netto-aktivlari bo'lib (sof aktivlar, mol-mulkning mulkdorlarga tegishli bo'lgan sof qiymati), u aktivlar bilan majburiyatlar o'rtasidagi ayirma sifatida aniqlanadi" [2].

B.I.Isroilov va R.O Xolbekov muallifligidagi "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darsligida "Ustav kapitali – korxonalar faoliyati boshlanishi uchun davlat yoki ta'sischilar (mulkdorlar)ning ajratgan moddiy boyliklarining pul ko'rinishidagi qiymatidir" [3], -deb ta'rif berilgan.

Rus olimmi P. Ya. Papkovskaya tomonidan tahrirlangan "Buxgalteriya hisobi" darsligida quyidagicha ta'rif berilgan: "Ustav kapitali-bu xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkilot mulkiga mulkdorlarning (ta'sischilar, ishtirokchilar) pul ko'rinishidagi badallar (aksiyalar, nominal qiymatidagi aksiyalar) to'plamidir. Ushbu agregatni o'zgartirishga faqat tegishli ma'lumotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish reyestriga kiritgandan keyingina yo'l qo'yiladi. Davlat tashkilotlari uchun ustav kapitali-bu ularni tashkil etish paytida davlat jamg'armasidan olgan barcha mablag'larning pul ifodasidir" [4].

Shuningdek rus olimlari Ye. V. Kuzmina va N. V. Morozovaning "Buxgalteriya hisobi" kitobida shunday ta'rif berilgan: "Korxonaning ustav kapitali-bu foyda olish va kreditorlarning manfaatlarini kafolatlash maqsadida moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkilot mulkining minimal miqdori" [5].

Yuqorida berilgan tariflarga qo'shilgan xolda fikrimizcha aynan biznes hamda korxonalarini paydo bo'lishi va shakllantirish jarayonida rus olimi R. A. Kokorev ilmiy muharrirligidagi "Moliyaviy savodxonlik" nomli darsligida xususiy kapital to'g'risida berilgan ta'rif to'liqroq va aniqroqdir:: "Xususiy mablag'lar yoki kompaniyaning xususiy kapitali-bu biznes asoschilarini va moliyaviy ko'rsatkichlar hisobidan shakllantirilgan moliyaviy resurslar to'plamidir. Moliyalashtirish manbai sifatida ular barcha bosqichlarda – biznesning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishi va yetukligida foydalanish uchun javob beradi. Xususiy mablag'larining eng ko'p ishlataladigan turlari ustav kapitali, foyda va biznes asoschisidan olingan kreditlardir" [6].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda nazariy va uslubiy asoslari shakllantirildi, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar, soha olimlarining asarlari va ekspertlarning fikrlari internet va ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari qiyosiy tahlil etildi.

### **Tahlil va natijalar.**

Xususiy kapital kompaniyaning moliyaviy barqarorligini baholashning eng muhim elementi bo'lib, uning samaradorligi tahlilning to'g'riliqiga va korxonaning moliyaviy salohiyatini mustahkamlashda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtida tashkilotning xususiy kapitalini shakllantirish va ulardan foydalanishni moliyaviy tahlil qilishning turli usullari taklif qilinmoqda. Xususiy kapitalni tahlil qilishning barcha usullari asosan uning tarkibi va tuzilishini, rentabelligi va aylanmasini baholashga asoslangan. Biroq, so'nggi yillarda tashkilotlarning bozor turlarining kengayishi, shuningdek bozorning o'zgaruvchanligi tufayli kapital sifatini, unga bozor omillarining ta'sirini baholashga asoslangan yangi innovatsion usullar keng tarqalmoqda.

Korxonaning daromad olish qobiliyati xususiy kapitaldan foydalanishning asosiyo ko'rsatgichi hisoblanadi. Qaysi soha yoki joyda kapital iqtisodiy resurs sifatida yo'naltirilsa – iqtisodiyot real sektoriga yoki moliya sohasida har doim samarali foydalanish sharti bilan daromad olishga qodir bo'lishi zarur. Shunday qilib, korxonaning moliyaviy faoliyatining asosiyo maqsadi uning egalarining farovonligini maksimal darajada oshirishdir. Shundan kelib chiqqan holda biz kapitalning rentabelligi DYUPONT tomonidan ishlab chiqilgan metodologiya yordamida amaliy misol bilan tahlil qildik.

### Kapitalning rentabelligi

- Ushbu ko'rsatkich kompaniya aksiyadorlari nuqtai nazaridan eng muhimdir. Bu aksiyadorlar tomonidan investitsiya qilingan mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholash mezonidir. Sof foydani balansga ko'ra xususiy kapitaliga bo'lishning qismi sifatida aniqlanadi.

### Aktivlarning rentabelligi

- Kompaniya aktivlaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. Bir aktiv birligi tomonidan qancha foyda olinganligini ko'rsatadi. Sof foydani aktivlarning umumiy qiymatiga (davr uchun o'rtaча yoki hisobot davri oxiriga) bo'lishning xususiy qismi sifatida aniqlanadi. Ko'rsatkich balans va daromadlar to'g'risidagi hisobotni bog'laydi.

### Moliaviy ta'sir koeffitsiyenti

- Qarzdan foydalanish darajasini ko'rsatadi. U jami aktivlarni kapital bo'yicha taqsimlashning koeffitsiyenti sifatida aniqlanadi. Ko'rsatkichdan foydalanib, siz korxona qarz mablag'lariga tayanishi kerak bo'lgan chegarani taxmin qilishingiz mumkin. Koeffitsiyent qiymati uchdan past bo'lmasligi kerak, ya'ni qarz va o'z mablag'larining nisbati kamida 2 bo'lishi kerak.

### Savdo rentabelligi

- Bu sof foydani sotishdan tushgan tushumga bo'lish deb ta'riflanadi. Koeffitsiyent mahsulot sotishdan olingan mablag'larning har bir so'midan korxona ixtiyorida qancha foyda birligi qolishini ko'rsatadi.

### Aktivlar aylanmasi

- Ko'rsatkich ma'lum miqdordagi aktivlar tomonidan yaratilishi mumkin bo'lgan savdo miqdorini tavsiflaydi. Koeffitsiyent aktivlardan qanchalik samarali foydalilanayotganligini ko'rsatadi.

### Soliq yuki

- U sof foydani moliaviy-xo'jalik faoliyatidan olingan foyda bo'yicha (foizlarni to'lashdan keyin) taqsimlashning koeffitsiyenti sifatida aniqlanadi. Koeffitsiyent soliqlar to'langanidan keyin foydaning qancha qismi korxona ixtiyorida qolishini ko'rsatadi.

### Foiz yuki

- Bu foizlar to'langanidan keyin asosiy faoliyatdan olingan foydaning qancha qismi qolishini ko'rsatadi.

### Sof marja

- U ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda sof foydadan necha baravar oshishini tavsiflaydi.

## 2-rasm. Kapital rentabelligini tahlil qilish ko'rsatkichlari

DYUPONT tomonidan ishlab chiqilgan metodologiya texnikaning mohiyati kapitalning rentabelligini hisoblash formulasini ushbu daromadga ta'sir qiluvchi omillarga ajratishdan iboratdir. Tahlilning asosi aniqlangan va hisoblangan koeffitsiyentlar hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki korxonaning kapital rentabelligi va uning maksimal darajada oshirish, faoliyatning samaradorligini oshirish bo'yicha baholash va tavsiyalarning qaysi biri kapitalning daromadliliga ko'proq ta'sir qilishiga bog'liq bo'ladi.

Birinchi bosqichda tahlil asosiy moliaviy ko'rsatkichlarning kapital rentabelligi qanday ta'sir o'tkazishi va uning dinamikasini aniqlashga qaratilgan modelni

shakllantirishdan iborat bo‘ladi. DYUPONT tomonidan ishlab chiqilgan metodologiya bo‘yicha 3 ta tahlil modeli qo‘llaniladi. Biz quyidagi rasmida ushbu modellarda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar keltirib o‘tdik. (2-rasm).

Yuqorida keltirilgan ushbu ko‘rsatkichlardan foydalanib, biz amaliy misol yordamida ya’ni Farg‘ona viloyati, Toshloq tumanida faoliyat yuritayotgan “AGRO SIFAT SINTEZ” MCHJda kapitalining daromadliligin tahlil etib hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Hisoblangan ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

### 2021-2023 yillarda “AGRO SIFAT SINTEZ” MCHJda kapitalining daromadlilik ko‘rsatkichlari

Koeffitsiyent	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Kapitalning rentabelligi	0,023	0,203	0,069
Aktivlarning rentabelligi	0,011	0,122	0,038
Moliyaviy ta’sir koeffitsiyenti	2,084	1,669	1,800
Savdo rentabelligi (%)	0,463	5,755	2,996
Aktivlar aylanmasi	2,450	2,120	1,930
Soliq yuki	0,502	0,742	0,824
Sof marja	6,607	1,699	1,925

“AGRO SIFAT SINTEZ” MCHJda kapitalining daromadlilik ko‘rsatkichlari olingan ma’lumotlarni jadvalda tahlil qilindi. Xususiy kapitalining rentabelligi foydaning o‘sishi evaziga o‘sgan (2022-yilga nisbatan deyarli 10 baravarga). Aktivlarning rentabelligi, 2021-yilda har bir so‘mi uchun 1 tiyin foyda, 2022-yilda — 12 tiyin. va 2023-yilda-3 tiyin. foyda bo‘lgan. Moliyaviy leveraj koeffitsiyenti 3 dan past bo‘lmasligi kerak, ya’ni korxona aktivlari yetishmasligi mavjud. Savdoning rentabelligi mahsulot sotishdan tushgan daromadning har bir so‘miga qancha foyda to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bu ko‘rsatkich uch yil ichida oshdi. Tahlil qilingan davrda aktivlar aylanmasi biroz kamaydi. Soliq yuki oshdi, ya’ni 2021-yilda soliqlardan so‘ng kompaniya foydasining qariyb 50%, 2022-yilda esa 80% dan ortig‘i bor edi. Sof marja 6 dan 1,9 gacha kamaydi, ya’ni 2021-yilda ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda sof foydadan 6 baravar, keyin esa atigi 2 baravar ko‘p edi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxiga kiritilayotgan xarajatlar va to‘lovlar miqdori kamaygan.

#### Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, kapitalning rentabelligi kompaniya faoliyatini tahlil qilish jarayonida eng muhim ko‘rsatkichlardan biri degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot va yuqorida keltirilgan “AGRO SIFAT SINTEZ” MCHJda kapitalining daromadlilik ko‘rsatkichlari olingan ma’lumotlarni tahlili yordamida korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash va xususiy kapitalini shakllantirish va undan foydalanishni masalalari quyidagilarni amalga oshirishni tavsiya va taklif etamiz:

1) ishlab chiqarishni intensivlashtirish hisobiga ishlab chiqarish siklining davomiyligini qisqartirish (eng yangi texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish,

korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan, mehnat va moddiy resurslardan to‘liq foydalanish va boshqalar.);

2) ishlab chiqarishni zarur moddiy resurslar bilan uzlusiz ta’milash va kapital zaxiralariga sarflanadigan vaqtini qisqartirish maqsadida logistika masalalarini takomillashtirish;

3) ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jo‘natish va ular bo‘yicha hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonini raqamlashtirish va tezlashtirish;

4) ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya jarayonlarini yaxshilash bo‘yicha ishlarni tashkil etish, marketing tadqiqotlari darajasini oshirish (shu jumladan bozorni o‘rganish, mahsulotni va uni iste’molchiga targ‘ib qilish shakllarini takomillashtirish, to‘g‘ri narx siyosatini shakllantirish, samarali reklama tashkil etish va boshqalar.);

5) kompaniyaning moliyaviy kafolatlarini oshirish maqsadida ustav kapitalini ko‘paytirish va zaxira fondini yaratish, shuningdek uning buxgalteriya hisobini takomillashtirish va balansda aks ettirish.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar barcha birgalikda qo‘llash korxonalarning muvaffaqiyatli va uzoq muddathli ishlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020, 558 bet.
2. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; —T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.
3. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn]: darslik / B.I.Isroilov, R.O Xolbekov. — Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240-b.
4. Бухгалтерский учет: учеб. / П. Я. Папковская [и др.] ; под ред. П. Я. Папковской. – 2-е изд., испр. и доп. – Минск : РИПО, 2019. – 375 с.
5. Бухгалтерский учет : учеб. пособие / Е. В. Кузьмина, Н. В. Морозова. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 296 с.
6. Финансовая грамотность: учебник для вузов/науч. ред. Р.А. Кокорев – Москва: Издательство Московского университета, 2021. - 568 с.
7. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). Harajatlar hisobning zamонавиј usullari. Scientific progress, 3(1), 442-448.
8. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallalari. Scientific progress, 3(4), 1030-1037.
9. Akbaralievich, P. E. A. (2021). Theoretical Bases Of The Organization Of Private Capital Accounting In The Republic Of Uzbekistan. EFFLATOUNIA-Multidisciplinary Journal, 5(2).
10. Akbaralievich, E. A. (2022). OWN CAPITAL: ECONOMIC ESSENCE AND FORMATION ORDER. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 546-561.
11. Кудбиев, Д. (2022). Особенности Учета Основных Средств В Узбекистане. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 142-149.

12. Эрматов, А. А., & Гафурова, М. М. (2022). Совершенствование Учета Собственного Капитала В Условиях Перехода На Mcfo. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(12), 8-16.
13. Савинова, Г. А. (2022). Определение Капитала В Mcfo И Трактовка Его Сущности. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(11), 164-168.
14. Савинова, Г. (2023). ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(6), 109-114.
15. Савинова, Г. А. (2022). ПРОБЛЕМЫ АУДИТА ФОРМИРОВАНИЯ УСТАВНОГО КАПИТАЛА И ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ. TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 146-149.
16. Rakhmatillayevna, K. G. (2024). ENHANCING GLOBAL INVESTMENT ALLURE IN CONSTRUCTION: STRATEGIES FOR SUCCESS. Conferencea, 53-56.
17. Boxodir o'g'li, T. D. (2023). ISSUES OF FORMATION OF FINANCIAL REPORTS IN THE DIGITAL ECONOMY. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(15), 77-81.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

